

Uzbekistan Airways reyslari to'g'risida xabar

2023 10 Yanvar

Bugun, 2023-yil 10-yanvar kuni noqulay ob-havo sharoiti tufayli Uzbekistan Airways reyslari: HY9685/HY9686 Toshkent-Sochi-Toshkent, HY011/ HY012 Toshkent-Nukus-Toshkent, HY271/ HY272 Toshkent-Istanbul-Toshkent, HY065/HY066 Toshkent-Termiz-Toshkent, HY745/HY746 Toshkent-Tbilisi-Toshkent, HY023/HY024 Toshkent-Buxoro-Toshkent, HY603/HY604 Toshkent-Moskva-Toshkent, HY333/HY334 Toshkent-Dubay-Toshkent, HY5303/ HY5304 Toshkent-Jidda-Toshkent, HY763/HY764 Toshkent-Oлмаota-Toshkent va HY631/HY632 Toshkent-Sankt-Peterburg-Toshkent kechikib amalga oshiriladi.

Shuningdek, HY065/HY066 Toshkent-Termiz-Toshkent qatnovi ham noqulay ob-havo sharoiti sababli bekor qilindi. Yo'lovchilar bekor bo'lgan qatnov aviachiptalarining to'liq qiymatini chipta sotib olingan joyda qaytarib olish yoki boshqa sanaga bepul qayta bronlash huquqiga egadirlar.

"Uzbekistan Airways" AJ Axborot xizmati aviakompaniya uchun yo'lovchilar xavfsizligi yuqori o'rinda turishini eslatib o'tadi. Keltirilgan noqulayliklar uchun yo'lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so'raymiz.